

AYOLLARDA MIYOMA KASALLIGI

Do'smatova Dilchehra

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi

Annatatsiya: Bachadon miomasi - bachadon yoki bachadon bo'yni devoridagi yaxshi sifatli neoplazmadir (o'sma). Bundan tashqari, bu kasallik ba'zan fibromioma, leyomioma deb ham ataladi. Ko'pgina hollarda miomaning bachadondagi ko'p o'choqlari mavjud, ularning har birining o'lchamlari bir necha millimetrdan bir necha santimetr gacha o'zgarib turadi. Mioma o'lchamlarini ifodalash uchun, ginekologlar homiladorlikning turli davrlaridagi (haftalarda) ayollar bachadonning kattaligi bilan qiyosiy o'lchovdan foydalanadilar.

Kalit so'z: mioma, o'sma, neoplazma, fibromioma, leyomioma,

Дусматова Дилчехра

Термезский университет экономики и сервиса
Факультет медицины, направление «Лечебное дело»

Аннотация: Миома матки — это доброкачественная неоплазия (опухоль), расположенная в стенке матки или шейки матки. Данное заболевание также называют фибромиомой или лейомиомой. В большинстве случаев миома имеет множественные очаги в матке, каждый из которых может варьироваться по размеру от нескольких миллиметров до нескольких сантиметров. Для описания размеров миомы гинекологи используют сравнительный метод, сопоставляя их с размерами матки на различных сроках беременности (в неделях).

Ключевые слова: миома, опухоль, неоплазия, фибромиома, лейомиома.

Do'smatova Dilchehra

Termiz Institute of Economics and Service
Faculty of Medicine, General Medicine Program

Abstract: Uterine myoma is a benign neoplasm (tumor) located in the wall of the uterus or cervix. This condition is also referred to as fibromyoma or leiomyoma. In most cases, uterine myomas are multiple, with each lesion varying in size from a few millimeters to several centimeters. To describe the size of a myoma, gynecologists

often use a comparative scale, correlating it with the uterine size at different stages of pregnancy (measured in weeks).

Keywords: myoma, tumor, neoplasm, fibromyoma, leiomyoma.

Muammoning dolzabrligi: Ko'pincha bachadon miomasi rivojlanishi ayollarda gormonal buzilishlar bilan bog'liq, ayniqsa estrogen konsentratsiyasi ortishi bilan. Ushbu gormonal buzilish ko'proq reproduktiv davrdagi yosh ayollar uchun xos hisoblanadi. Menopauza vaqtida estrogen gormonlarining tabiiy kamayishi tufayli bachadon miomasi o'z-o'zidan, davolashdan qat'iy nazar, yo'qolib ketishi mumkin. Bundan tashqari, bachadon miomasining sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: Irsiy moyillik; Gormonal buzilishlar; Adenomioz; Jinsiy a'zolarida yallig'lanish jarayoni; Modda almashinuvi kasalliklari (qandli diabet, shu jumladan); Surunkali tizimli kasalliklar; Kamharakat hayot tarzi, ortiqcha vazn; Surunkali stress holati; Abortning ta'siri, intrauterin (bachadon ichi) kontratseptivlarni qo'llash; Jinsiy hayot bilan bog'liq norozilik (jinsiy aloqada anorgazmiya).

Bachadon miomasi paydo bo'lishining ayrim sabablari batafsil tushuntirilishi kerak.

Gormonal kasalliklar. Mioma - gormonga bog'liq bo'lgan kasallikdir. Organizmda ayol gormonlari darajasi past bo'lganda, ya'ni jinsiy balog'atga yetishdan oldin va klimaks davriga kirgach, bachadon miomasi rivojlanishi ehtimoli juda kamdir. Estrogen gormonlar konsentratsiyasining me'yoridan ortiqqligi mioma rivojlanishiga olib keladi. Biroq, inson organizmida barcha gormonlar o'zaro bog'liqligini ham inobatga olish kerak va ko'pincha bachadon miomasi nafaqat estrogen konsentratsiyasining yuqoriligi, balki ayol jinsiy tizimining barcha gormonlari nozik muvozanatning buzilishi sabab paydo bo'lishi mumkin. Inson organizmida endogen estrogeniga o'xshash moddalar aniqlangan va bachadon miomasi ularga huddi estrogenlarga kabi sezuvchanlikka egadir. Ushbu moddalar ksenoestrogenlar deyiladi va ularning mavjudligi, shuningdek, o'sma shakllanishiga turki bo'lishi mumkin.

Homiladorlik, tug'ish, abortlar soni Mioma shakllanishi sababchisi sifatida gormonal o'zgarishlarning differentsial tashxisida ko'plab omillar hisobga olinadi, masalan, ayol menstrual davrining boshlanishi, menstrual siklning o'rtacha davomiyligi, homiladorliklar, tug'ruqlar soni, emizish muddati va umuman uning mavjudligi. Statistika ko'ra, kamida bitta farzand tuqqan ayollarda anamnezida tug'uqlar bo'lmagan ayollarga nisbatan miomaning paydo bo'lishi ehtimoli ancha past bo'ladi. Oziqlanish ratsioni Taomnoma kaloriyaligining yuqoriligi, to'yingan yog' kislotalari va yuqori darajali qayta ishlangan mahsulotlarni iste'mol qilish, shuningdek, o'simlik

tolalarini yetarli qabul qilmaslik kabi noto'g'ri ovqatlanish semizlikka olib keladi, bu esa bachadon miomasi xavfini oshiradi. Organizmda yog' foizining ortiqchaligi gormonal muvozanatning buzilishi, xususan, androgenlarning kamayishi, estestrogenlarning esa oshishiga olib keladi. Bunday gormonal kasalliklar sezilarli darajada ham yaxshi sifatli (endometrioz, bachadon miomasi), ham reproduktiv tizimning yomon sifatli o'smalari va hatto ko'krak bezi saratoni rivojlanishi xavfini oshiradi. Hayvonlar manbalaridan olingan oziq-ovqat iste'mol qilmaydigan ayollar bachadon miomasidan kamroq aziyat chekishadi. Bachadon miomasi shakllanishi xavfini kamaytirish uchun asosan murakkab uglevodlar, kamroq to'yingan yog'li oqsillar bilan oziqlanish, shuningdek, taomonomaga ko'proq sabzavot, meva, kam yog'li sut mahsulotlari kiritish tavsya etiladi. Tana vaznining 10 kg oshishi ayollarda bachadon miomasi rivojlanish xavfini 20 foizga oshiradi.

Qandli diabet va gipertoniya Erta yoshda (35 yoshgacha) gipertoniya yoki modda almashinuvi kasalliklari bo'lgan ayollarda mioma rivojlanishi xavfi yuqori bo'ladi.

Og'zaki kontraseptivlardan foydalanish, jinsiy a'zolar jarohatlari (shu jumladan tug'ish va abort natijasida), ayol jinsiy tizimining surunkali yallig'lanishlari gormonal tizim buzilishiga hissa qo'shadi va mioma rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bachadon miomasi alomatlari va belgilari Ko'pincha, ayollar mioma borligiga shubha qilishmaydi, hech qanday tashqi alomatlar namoyon bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ko'p hollarda ayol butunlay boshqa sabablarga ko'ra ginekologga tashrif buyurganida yoki tibbiy ko'rikdan o'tishi vaqtidagina o'zida mioma borligini aniqlaydilar. Bachadon miomalari kattagina o'lchamlarda bo'lsa, alomatlar deyarli doimo qayd qilinadi, boshqa holatlarda hech qanday alomat va belgilar kuzatilmaydi.

Bachadon miomasining alomatlari reproduktiv organlarning ko'plab boshqa kasalliklarining alomatlari bilan juda o'xshash. Shuning uchun, quyida keltirilgan alomatlarining birontasi aniqlangan bo'lsa, aniq tashxis qo'yish uchun ginekologga tashrifni kechga qoldirmaslik kerak.

Bachadon miomasining alomatlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Nomuntazam menstruatsiya, siklning o'rtasida qonli ajralma ajralishi;

Kamdan kam hollarda bachadondan qon ketishi yuzaga keladi, ba'zan qon miqdori juda ko'p bo'ladi;

Hojat chiqarish muntazamligining buzilishi, tez-tez siydik chiqarish (katta o'sma tufayli qorin bo'shlig'i bosimining oshishi bilan bog'liq);

Uzoq muddatli bepushtlik, ham birlamchi, ham ikkilamchi;

Qorin pastidagi og'riqlar, siqilish hissi; Tana vaznining ortishi bilan bog'liq bo'lmagan qorin hajmining kattalashishi.

Bachadon miomasini operatsiyasiz davolash

Ba'zi hollarda bachadon miomasi jarrohlik amaliyotisiz davolanadi. Miomani davolashning bunday varianti quyidagi hollarda tavsiya etilishi mumkin:

Ayol klimaks davriga yaqinlashishi;

Mioma o'lchamlari 12 haftadan ko'p emas;

Miomaning sekin o'sishi;

Jiddiy alomatlar bo'lmasligi.

FUT-ablyatsiya (fuz-ablyatsiya) yoki fokuslangan ultratovushli ablyatsiya — bachadon miomasini jarrohliksiz davolashning progressiv usulidir. Muolajaning tamoyili — bu fokuslangan ultratovush (FUT) impulslari yordamida bachadondagi miomatoz tugunlarini koagulyatsiya qilishdir. Yo'nalishi va darajasini nazorat qilish MRT yordamida real vaqtda amalga oshiriladi. Ushbu amaliyot miomalarni olib tashlash operatsiyasidan ko'ra ancha xavfsizroq va qulayroqdir. Afsuski, FUT bilan davolash faqatgina muayyan turdagi miomalar uchun samarali bo'ladi, shu sababli har bir bemorni davolash uchun qaror qat'iy individual ravishda aniqlanadi. Ushbu uslubning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Jarohat, qon yo'qotish yo'qligi, muolaja yengil sedativ preparatlar ta'siri ostida bajariladi;

Bachadon yaxlitligini va natijada reproduktiv qobiliyatni saqlab qolish;

Yuqori samarali usul;

Nojo'ya ta'siri kamligi;

Qaytalanishni oldini olish;

Tiklanishning tezkor muddatlari (muolaja kasalxonaga yotqizilmasdan ham bajarilishi mumkin).

Bachadon miomasini konservativ davolash tamoyillari

Miomadan jarrohlik aralashuvisiz xalos bo'lish uchun to'g'ri ovqatlanish, gormonal va immunitet holatini tiklash tamoyillariga rioya qilish kerak. Bundan tashqari, fitopreparatlar va gomeopatik vositalarni qabul qilish tavsiya etiladi. Bachadon miomasini operatsiyasiz qanday davolash mumkin? Miomani bartaraf etish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Jinsiy yo'l orqali yuqadigan kasalliklarni (JYYK) va jinsiy a'zolar mikroflorasi buzilishlarini davolash va oldini olish;

Immunitetni tiklash va rag'batlantirish;

Metabolizmni me'yorlashtirishga qaratilgan taomnomani tuzatish;

Bemorning psixoemotsional holati bilan ishlash;

Menstrual siklni normallashtirish, bachadon qon ketishini bartaraf qilish, anemiyaga qarshi choralar.

Belgiyalik olimlar miomaga qarshi kurashuvchi yangi dori yaratish ustida ish olib borishdi, u miomaning ahamiyatli progressiyasida bachadon gisterektomiyasidan qochishga yordam beradi. Tadqiqotlar natijasida yangi avlod tabletkalar — Esmya dorivor preparatlari ishlab chiqildi. Ushbu preparatning faol moddasi ulipristal asetatdir. Ushbu birikma ko'plab favqulotda kontratsepsiya vositalari asosi bo'lib, progesteron retseptorlariga tanlovchi modulyatsion ta'sir ko'rsatadi.

Miomaning shakllanishi va rivojlanishi nafaqat estrogen fonga, balki progesteron tarkibiga ham bog'liq ekanligi ma'lum bo'lgach, olimlar gestagenlarning organizmga ta'sirini bartaraf etadigan moddalarni topish masalasini o'rtaga tashlashdi. Shunday qilib Bryusseldagi universitetning Sent-Luki kasalxonasida biologlar guruhi konservativ davolashga javob bermayotgan mioma rivojlanishiga ulipristal asetat ta'sirini tekshirishga qaror qildi. Dori ta'sirini o'rganish uchun mioma kasalligini davolash uchun jarrohlik talab qilinadigan 550 nafar ayol ko'ngillilar jalb qilindi. Tajriba 3 oy davom etdi. Olingan natijalarni ko'rib chiqqach, olimlar EsmyaTM preparati mioma o'lchamini kamaytirishga va kasallikning klinik belgilari jiddiylikini kamaytirishga sezilarli darajada hissa qo'shganini ta'kidlab o'tishdi.

Bunday ma'lumotlar shifokorlar va ushbu kasallikdan aziyat chekadigan ko'plab bemorlar uchun dalda beradi. Ehtimol, yaqinda bachadon miomasini davolashi juda oson va tez o'ta boshlaydi.

Bachadon miomasini jarrohlik yo'li bilan davolashga ko'rsatmalar

Miomani davolash uchun tezkor jarrohlik aralashuviga ko'rsatma quyidagi holatlarda beriladi:

Ko'p tugunlar, mioma 12 haftadan ko'proq va kichik tos a'zolarini ezayotgan bo'lsa;

Bachadondan kuchli va tez-tez qon ketishi;

O'sish tezligi yiliga 4 haftadan ziyod;

Miomatoz tugun nekrozi;

Bachadon miomasining adenomioz bilan birgalikda qayd qilinishi;

Submukoz tugun shakllanishi;

Subseroz tugun oyoqlarining buralib qolishi;

Shilliq osti miomalari.

Embolizatsiya, ya'ni bachadon arteriyalarini to'sib qo'yish miomani davolashning ajoyib usuli bo'lib, u katta salohiyatga ega. Bunday muolajani amalga oshirish uchun bachadonga maxsus zond kiritish va bachadon miomatoz tugunini qon bilan ta'minlaydigan muayyan tomirni topish kerak bo'ladi. Keyin bu arteriyaga tomir

emboliyasini keltirib chiqaradigan maxsus moddalar kiritiladi. O'smaning oziqlanishi to'xtaydi va asta-sekin o'simta so'rilib ketishi mumkin. Afsuski, bu operatsiya har qanday mioma uchun to'g'ri kelmaydi, shuningdek, bunday davolanishning oqibatlari va kasallik qaytalanishi xatarlari to'liq o'rganilmagan. Ammo, ko'pchilik shifokorlar ijobiy fikrda va hatto bunday muolajadan keyin ayol homilador bo'lishi va homila ko'tarishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuni yodda tutish kerakki, har bir bemorda reproduktiv vazifani saqlab qolish masalasi individualdir.

Bachadon miomasini xalqona vositalar yordamida davolash

Bunday umidsizlikka duchor bo'lgach, ko'plab ayollar ushbu muammoni hal etishning muqobil usullarini qidirishga urinishadi. Qidiruvlardan so'ng, uy sharoitida miomadan qutulishning barcha xalq tabobati uslublari dorivor o'simliklar bilan qinni chayish va tamponlar kiritishga asloslanganligi ma'lum bo'ladi. Shifokorlar organizmda sinovlar o'tkazmaslik va mustaqil davolanishga qo'l urmaslikka chaqiradi. Chunki uy sharoitida kiritilgan dorivor preparatlar sog'liqning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bunday holatda xalq tabobati samarasizdir, o'simlik dori vositalari kasallik alomatlarini kamaytirishga yordam beradi, ammo bachadon miomasining rivojlanishini to'xtatmaydi. Biroq, bunday muolajani sinab ko'rish istagi mavjud bo'lsa, unda bu masalani boshlangunga qadar shifokor bilan muhokama qilish tavsiya etiladi.

Mioma asoratlari va oqibatlari

Mioma ko'pincha hech qanday alomatlar namoyon etmasa yoki namoyon bo'lsa-da, lekin noqulaylik tug'dirmasa, ayollar tashxis va davolashni ko'pincha bir chetga surib qo'yishadi. Organizmning bu qismini e'tibordan chetda qoldirish juda xavflidir. Kasallik yomon sifatli o'simta belgilarini olishi mumkin, bu esa nazoratsiz o'sishga va juda ancha yoqimsiz davolashga, shuningdek, boshqa ko'plab noxush oqibatlarga olib keladi.

O'smalarning malignizatsiyasi

Bachadon miomasining eng dahshatli asoratlaridan biri yaxshi sifatli o'smaning yomon sifatiga aylanishidir. Shifokorlar, o'tish ehtimoli yuqori emas, biroq mavjud degan fikrda. Shuning uchun, agar bachadonda mioma aniqlansa, reproduktiv tizimning holatini diqqat bilan kuzatish, ginekologga muntazam tashrif buyurish va o'smalar hajmini nazorat qilish uchun ultratovush tekshiruvidan o'tib turish kerak. Oxirgisi ayniqsa muhimdir, chunki aynan shishning tez o'sishi u onkologik patologiyaga o'tishning birinchi belgisidir.

Anemiya rivojlanishi

O'z salomatligiga e'tibor qilmaslik, mioma tufayli kelib chiqqan kuchli bo'lmagan, ammo muntazam bachadondan qon ketishlar oddiy qon yo'qotishlarga va anemiya sindromi rivojlanishiga olib keladi. Bu kasallikning yana bir xavfi, kamqonlikning asta-sekin rivojlanishi tanani bunday holatga moslashishiga imkon beradi, natijada bu holatdan chiqish uchun tashxis va davolash murakkablashadi. Reproduktiv funktsiyaning yo'qotilishi

Ayollarning reproduktiv tizimi patologiyalarining erta tashxislash muammosi ortib borayotganligi sababli, kech bosqichda aniqlangan mioma tufayli gisterektomiyaga (bachadonni olib tashlashga) chalingan ayollar soni tobora ortib bormoqda. Ushbu jarrohlik aralashuvi juda ko'p noxush oqibatlariga olib keladi va ayolning tanasi uchun katta stressdir. Afsuski, bu holda reproduktiv funktsiyani amalga oshirish mumkin emas. Agar jarrohlik yo'li bilan davolash tibbiy nuqtai nazardan eng maqbul bo'lsa, ayol birinchi navbatda o'zining sog'lig'i haqida o'ylashi kerak. Ayolning organizmida bachadon faqat farzand tug'ish uchun xizmat qiladi va bu a'zosiz ham ayol uzoq va to'liq hayot kechirishi mumkin.

Agar bemorning farzandlari bo'lsa, muammoning axloqiy tomoni oson hal bo'ladi. Shunga qaramay, agar ayolning farzandi bo'lmasa ham, ushbu imkoniyatni saqlab qolish uchun o'z hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yish kerak emas. Agar operatsiya o'tkazish tavsiya etilgan bo'lsa, demak, jararyonni boshqa usullar bilan to'xtatib bo'lmaydi va bu a'zoning yo'qotilishi muqarrardir. O'smaning yomon sifatli shishga aylanishi ehtimolini esdan chiqarmaslik kerak.

Xulosa

Bachadon miomasi ayollar orasida uchraydigan eng keng tarqalgan ginekologik kasalliklardan biridir. U yaxshi sifatli o'sma hisoblanadi, ammo ko'p hollarda ayolning reproduktiv salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mioma homiladorlik jarayoniga, hayz siklining buzilishiga va qon ketishlarga sabab bo'lishi mumkin. Kasallikning klinik belgilari ko'pincha miomaning o'lchami, joylashuvi va soniga bog'liq bo'ladi. Erta tashxis qo'yish va davolash kasallik oqibatlarini kamaytiradi hamda ayollarning hayot sifatini oshiradi. Profilaktika choralariga muntazam ginekologik ko'riklardan o'tish, sog'lom turmush tarzini olib borish va gormonal muvozanatni nazorat qilish kiradi. Bachadon miomasini davolashda konservativ va jarrohlik usullari qo'llanadi, davolash yondashuvi esa kasallikning individual xususiyatlariga bog'liq tarzda belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (ГОСТ formatida)

1. Абдуллаева, Д. Ш. Акушерлик ва гинекология. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2021. – 412 б.
2. Серов, В. Н., Кулаков, В. И. Руководство по гинекологии. – Москва: Медицина, 2020. – 688 с.
3. Stewart, E. A. Uterine fibroids. Lancet. – 2017. – Vol. 389(10085). – P. 300–312.
4. Baird, D. D., Dunson, D. B., Hill, M. C. High cumulative incidence of uterine leiomyoma in black and white women. American Journal of Obstetrics and Gynecology. – 2003. – Vol. 188(1). – P. 100–107.
5. Всемирная организация здравоохранения (WHO). Reproductive health and uterine fibroids. – Geneva: WHO, 2021. – 76 p.